



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Mamasoliyev Xurshid

Samarqand Davlat Universiteti Magistranti

AMIR YALANGTUSH BAHODIRNING SIYOSIY FAOLIYATIDAN LAVHALAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVII asrda yashagan Yalangtush Bahodirning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi Samarqandda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumot beriladi. Buxoroda ashtarxoniyar hukmronligining o'rnatilishi, Yalangtush Bahodirning ashtarxoniy Imomqulixon bilan amalga oshirgan harbiy yurishlari manbalar asosida yoritilgan. Maqolada Amir Yalangtush Bahodir faoliyati yoritilgan manbalar va tarixchilarning ma'lumotlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Turkiston, Tillakori, Sherdor, tanob, vaqf, tulkichi, saykanchi, zirengi, kilegi.

XVII asrda yashagan Amir Yalangtush Bahodir nafaqat O'zbekiston, butun O'rta Osiyo, balki mintaqaning qo'shni xalqlari bilan bo'lgan siyosiy munosabatlar tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan yirik davlat arbobi sanaladi. Yalangtush Bahodir manbalarda harbiy bilimni puxta egallagan sarkarda, davlat boshqaruvida bevosita qatnashgan mohir siyosatchi, madrasada tehsil olgan ziyoli, betakror guzal va hashamatli binolar qurdirgan tarixiy shaxs sifatida tilga olinadi.

Yalangtush Bahodir olchin urug'iga mansub bo'lib, 1576-yil Nurota hokimi oilasida tug'ilgan¹. Muhammad Ma'sum va Muhammad Tohir Vohidning "Tarixi olamaroyi Abbosi"

¹ Taniyev G. Yalangtush Bahodirning Buxoro xonligi siyosiy barqarorligini taminlashdagi o'rni // O'zbekiston tarixi. 2019, 3-son. -B 20-21.

asarida keltirilichicha, Yalangtush Bahodir dastlab 19 yoshida Buxoro xoni Dinmuhammadxon qo'liga harbiy xizmatga kirgan².

Sarkardaning faoliyati dastlab harbiy qo'shinda xizmat qilish, qo'zg'olonlarni bostirish kabi ishlar bilan boshlangan. Yalangtush Bahodir Abdullaxon II hukmronligi davrida 1590-1593 yillarda uning huzurida harbiy mashg'ulotlardan dars olgan³. 1593-1595-yillarda Bulung'ur, Loyish, Kattaqo'rg'onda tumanboshi lavozimida faoliyat yuritgan. Yalangtush Bahodir 1595-1598-yillarda Bag'dodda ta'lim oladi⁴.

1626 yildan boshlab esa Samarqand shahrini mustaqil idora qila boshlagan. U o'zining shijoatligi jasur, mohir harbiy bo'lganligi sababli Toshkent va Turkistonni 3 marta harbiy yurish natijasida o'ziga bo'ysundiradi. XVII asrda Boburiylarga tegishli bo'lgan Qobul viloyatiga, Xuroson va mintaqaning boshqa ko'plab viloyatlarga bir necha bor muvaffaqiyatli harbiy yurishlarni amalga oshiradi. Bu yurishlar unga juda katta boylik va o'ljalarni olib keladi. Manbalar va tadqiqotlarda keltirilishicha bu yurishlar natijasida Yalangtush Bahodir 3000 dan ortiq qullarga ega bo'lgan⁵.

Bu boyliklar va qullar Yalangtush Bahodirning Samarqand va uning atrofida amalga oshirgan keng ko'lamlil buniyodkorlik ishlariga jalb qilingan. Yalangtush Bahodirning islohatlari va siyosati sarkarda mavqeyining nafaqat mamalakat ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham o'sishiga olib kelgan. Samarqand hukmdoriga hadya va sovg'a-salomlar jo'natish xuddi mamalakat xazinasiga mablag' ajratish bilan teng deb qaralgan. Masalan, Hindiston, Qandahor, Xuroson viloyatlaridan qirg'izlar, qalmiqlar va qozoq yo'l boshchilari tomonidan, qashg'ir xonlari va hattoki Tibetdan har yili unga qimmatbaho sovg'a-salomlar jo'natib turilganligi tarixiy adabiyotlarda keltirilgan.

Amir o'z boyliklarini qo'shin xarajatlarini, yer-mulk sotib olishga, bin ova inshootlar qurilishi kabi ishlarga sarflaydi. Masalan, tarixchilar M.A.Abduraimov va O.D.Chexovichlar tomonidan o'rganilgan tarixiy hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, Yalangtush Bahodir katta yer-mulkka ega bo'lgan. Masalan, hujjatda Yalangtush Bahodirning 1606-yilda Xoja Ahror avlodlaridan Ofarinkent tumaniga qarashli Yarimtug' yerini 4300 tangaga, 1631-yilda Shahrizabdan 1100 tanob yerni 52500 tangaga sotib olganligi, shuningdek, 1645-yilda Samarqandning Shovdor tumanidan Ashir Qushbegi o'g'illaridan katta bog' va yer xarid qilganligi⁶, yana shu tumanning Hinduvon mavzesidan katta yer mulkka ega bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

V.L.Vyatkinning ma'lumotiga ko'ra, Yalangtush Bahodirning vaqf hujjatlarida o'zi tomonidan 1646-1660 yillarda qurdirgan Tillakori va 1619-1635 yillarda qurdirgan Sherdor madrasalari uchun ham 11610 tanob sug'oriladigan yer va 8 ta do'kon vaqf qilib berilgani qayd etilgan⁷.

Yalangtush Bahodirning o'zi sotib olgan yer mulkidan tashqari yana hukmdorlar tomonidan unga berilgan iqto yerlari ham ko'p bo'lgan. Taniqli tarixchi olim B.A.Ahmedov bu haqda o'zining Balx tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida batafsil ma'lumot keltirgan. B.Ahmedov

² Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -Toshkent, 1994-yil. - B.228.

³ Taniyev G. Yalangtush Bahodirning Buxoro xonligi siyosiy barqarorligini taminlashdagi o'rni // O'zbekiston tarixi. 2019, 3-son. - B.20-21.

⁴ Ahmedov V.A. История Балха (XVI первая половина XVIII в). Toshkent. : Fan, 1982. - C.107.

⁵ Taniyeva G. Yalangtush Bahodirning Buxoro xonligi siyosiy barqarorligini taminlashdagi o'rni // O'zbekiston tarixi. 2019, - B.24.

⁶

⁷

"Bahr al-asror" asarining Londonda saqlanayotgan nusxasidagi dalillarga asoslanib, 1640 yilda Nodir Muhammadxon Balx viloyatiga qarashli Dariyi-suf hududini Kaxmerd, Molgan bilan birga va yana Tulkichi, Saykanchi, Zirengi, Kilegi, Hazora, Nikudari kabi urug'lar yashaydigan hududlarni Yalangtush Bahodirga iqto sifatida berganini yozadi⁸.

XVII asr boshlarida Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi vakillari orasida o'zaro taxt uchun kurash avj oladi. Bu kurashda davlat boshqaruvida obro'si egyptishi borayotgan amaldagi xon Vali Muhammad (1605-1611), ikkinchi tomonida Nodir Muhammad (1642-1645), uchinchi tomondan tobora siyosiy mavqeyi oshib borayotgan Imomqulixonning (1611-1642) tarafdor amirlari turardi. Bu jarayonlar to'g'risida tarixchi B.A.Ahmedov "Bahr al-asror" asarida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shunday qilib, o'zaro ichki kurash jarayonida 1611 yilda amirlardan Nodirbek, Bek o'g'li, Muhammad Boqi qalmoq hamda Xoja Hoshim (Mahdumi A'zamning nabirasi) lar qatorida Yalangtush Bahodir ham o'z harbiy qo'shini bilan Vali Muhammad tomonidan Imomqulixon tomonga o'tib ketadi⁹. Siyosiy kurashlarda yirik amirlarning qo'llab-quvvatlashiga erishgan Imomqulixon g'alaba qozonadi. Bu g'alabada Yalangtush Bahodirning xizmatlari nihoyatda katta edi. 1611 yilning fevral oyida Imomqulixon Buxoro xonligi taxtiga chiqadi¹⁰.

Vali Muhammad o'z oila a'zolari va bir nechta amirlari bilan Chorjo'y orqali Eronga qochib ketadi. Nodir Muhammad esa Balx viloyatiga hukmdor etib tayinlanadi. Yalangtush Bahodirning Vali Muhammad xizmatidan ketib Imomqulixon tomoniga o'tib kurashishi Imomqulixonning taxtga o'tirishida xal qiluvchi rol o'ynadi.

Movarounnahrning keyingi siyosiy jarayonlarida ham Yalangtush Bahodir faol ishtirok etgan. Misol uchun, Eronga qochib borgan sobiq hukmdor Vali Muhammadxon Eron shohi Abbasdan Buxoro taxtini qaytarib olishda yordam qilishni so'raydi. Muhammad Yusuf Munshiy "Tarixi Muqimxoniy" asarida keltirilishicha shoh Abbas o'zining 80 ming kishilik harbiy qo'shinini Vali Muhammadxonning Imomqulixonga qarshi kurashishi uchun safarbar etadi¹¹.

O'sha vaqtlarda yosh bo'lgan tajribasiz hukmdor Imomqulixon Eron qo'shinining Buxoroga kelayotganidan xabar topib qo'rqib ketadi. Mag'lub bo'lsa Balxga qochishni mo'ljallab, Qarshi tomonga borib o'rnashadi. Mana shunday og'ir siyosiy vaziyatda Yalangtush Bahodir yana barcha jarayonlarni to'g'ri baholab, ma'suliyatni o'z qo'lga oladi. Tarixchi B.A.Ahmedovning ma'lumotlariga ko'ra, Yalangtush Bahodir Samarqandda vaziyatni to'liq o'z nazoratiga oladi. U Shukurbiy saroy bilan birga barcha amir va ruhoniylarni Eronga qarshi kurashda Imomqulixonni qo'llab-quvvatlashga da'vat etadi. Yalangtush Bahodir Qarshida qo'nim topgan Imomqulixonni Samarqandga olib keladi. Ular dushman hujumini birgalikda bartaraf etishga harakat qiladilar. Bu jarayonlarda Yalangtush Bahodir barcha amirlar, din peshvolarini va hukmdorni ham dushmanga qarshi kurashda boshini biriktira olgan mohir siyosatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Imomqulixon va Yalangtush Bahodir mudofa ishini birgalikda boshlagan vaqtda Eron qo'shinlari Samarqand shahri yaqinidagi Zarman mavzesiga kelib o'rnashadilar. Kuchlar teng bo'lmaganligini tushingan Imomqulixon, Yalangtush Bahodir va boshqa amirlar qozoq xonlari Abulay sulton va Ishim sultonlardan harbiy yordam so'raydilar. Ming afsuski har

⁸ Ahmedov B. История Балха. Toshkent. : Fan, 1982. - С.202-204.

⁹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimdan Rossiya bosqini davriga qadar. - T. : Sharq, 2001. - B. 263

¹⁰ Azamat Ziyov. Yalangtush Bahodir - ilm-fan va madaniyat homiysi. Yangi O'zbekiston. 2021-yil, 3-mart. 44-son.

¹¹ Мукумхонская история. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А. Семенова. - Т. : Академии



ikki qozoq sultonlari o'zlarining kam sonli qo'shinini Samarqandga yordamga jo'natib, o'zlari asosiy askarlari bilan Movarounnahrning shahar va qishloqlarini talashga kirishadilar. Qizig'i shundaki Vali Muhammadxon ham qozoq sultonlaridan yordam so'ragan edi.

"Balx tarixi" asarida bu tarixiy jarayonlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bu urushlarda Imomqulixon Yalangtush Bahodir va boshqa amirlar yordamida har ikkala dushman (qozoqlar va Eron qo'shinlari) ustidan g'alaba qozonadi. Qozoq sultoni Abulay sulton Samarqand atrofidagi qishloq va mavzela talab, Turkistonga qaytib ketadi. Ammo Ishim sulton Miyonqolda turib xavf solishga davom etardi. Imomqulixon Ishim sultonni yengish uchun yana Yalangtush Bahodir va Shukurbiy saroy bilan maslahatlashishga majbur bo'ladi. Ularning maslahati va ko'magi bilan Imomqulixon Ishim sultonga Toshkent, Turkiston va uning atrofidagi yerlarni berib, qozoqlar xavfini yam bartaraf etadi.

Bu davrda Movarounnahr va Balxda Ashtarxoniylar davlatining siyosiy barqarorligiga qarshi to'siq bo'lib turgan Vali Muhammadxonning o'g'li Rustam sulton ham jarayonlarda ishtirok etadi. Rustam sulton masalasida ham Yalangtush Bahodir asosiy rol o'ynaydi. Sobiq hukmdor Vali Muhammadxon Eronga qochayotib o'g'li Rustam sultonni Marvda qoldirib ketadi. Rustam sulton ham Eron davlatining yordami bilan Ubeh va Shafelon viloyatlarida joylashadi. U 1612-1622 yillar va 1631 yillar oralig'ida Balx, Seiston, Farax, Shibirg'on, Andxuy, Chechektu hududlariga ko'plab hujumlar uyushtiradi va mamalakat tinchligiga xavf solib turgan. Nodir Muhammadxon Rustam sulton muammosini hal qilish uchun bir necha bor Eron bilan elchilik aloqalarini olib bopradi. Biroq bu harakatlar ham hech qanday natija bermaydi.

Shundan so'ng 1623 yilda Yalangtush Bahodir boshchiligidagi ko'p sonli qo'shin Rustam sultonga qarshi hujum boshlaydi¹². Natijada Rustam sulton yana Eronga qochib ketadi. Ashtarxoniylar hukmdorlar 1631 yilgacha u bilan bog'liq boshqa muammoga duch kelmaydilar. 1631 yilga kelib esa Rustam sulton Balxning janubiy-g'arbiy hududlariga hujum uyushtiradi. Unga qarshi yana Yalangtush Bahodir boshchiligidagi harbiy qo'shin jo'natiladi. Yalangtush Bahodir Meruchak qal'asida Rustam sulton qo'shinini qamal qiladi va natijada Rustam sulton o'lpon to'lashi evaziga qamal bekor qilinib tinchlik sulhi tuziladi¹³. Ashtarxoniylar hukmdorlar Vali Muhammadxon va Rustam sulton muammosini shu tariqa Yalangtush Bahodirning xizmatlari evaziga hal qiladilar.

Xulosa qilib aytganda Amir Yalangtush Bahodir Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy munosabatlari tarixida alohida iz qoldirgan tarixiy shaxs hisoblanadi. U faqatgina harbiy ish bilan shug'ullanibgina qolmay, balki yurt obodonchiligi yo'lida ham qator islohatlarni amalga oshirgan. Xususan Samarqand hokimi bo'lgan Amir Yalangtush Bahodir davrida bu qadim shahar yana oldingi shuhratini qayta tiklaydi. Amir Yalangtush xizmatlari evaziga butun dunyoga mashhur Registon majmuasi hozirgi ko'rinishga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov B. История Балха. XVI первая половина XVIII в). Toshkent.: Fan, 1982.
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent, 1994-yil.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimdan Rossiya bosqini davriga qadar. - T.: Sharq, 2001.

¹² B. Ahmedov. История Балха. Toshkent: . Fan, 1982. - B 202

¹³ Taniyeva G. Yalangtush Bahodirning Buxoro xonligi siyosiy barqarorligini taminlashdagi o'rni// O'zbekiston tarixi. 2019. - B. 25.



4. Azamat Ziyo. Yalangtush Bahodir - ilm-fan va madaniyat homiysi. Yangi O'zbekiston. 2021-yil, 3-mart. 44-son.
5. Taniyev G. Yalangtush Bahodirning Buxoro xonligi siyosiy barqarorligini taminlashdagi o'rni // O'zbekiston tarixi. 2019, 3-son.
6. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. Перевод примечания и указатели профессора А.А. Семенова. Ташкент, 1956.
7. Tursunkulovich, R. S. (2021). The social composition of immigrants from the russian empire to Turkestan;-Late 19th century-early 20th century. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 21-26.
8. Yakubova, M. (2021). Lighting of the natural scientific spheres of Turkestan in the studies of german travelers. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 1(1), 66-78.
9. Мухиддинов, С. И. (2018). ТУРКИСТОНДА АНЪАНАВИЙ ВА МОДЕРН МАОРИФ ТАРИХШУНОСЛИГИ. In *Молодой исследователь: вызовы и перспективы* (pp. 475-479).
10. Muhiddinov Sunnatullo Inoyatovich "A New Look at the Activities of Jadid Schools in Turkestan" Published in *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd)*, ISSN: 2456-6470, Volume-5 | Issue-4, June 2021, pp.862-865, URL: <https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd42450.pdf>
11. Мухиддинов, С. И. (2017). ВП НАЛИВКИН КАК ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ЭТНОГРАФИИ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. *Наука и мир*, 1(5), 72-74.